

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KIMYO FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH

Musurmanova Nilufar Normuxammadovna

Toshkent farmasevtika akademik litseyi yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada kimyo fanini o'qitishda innovatsion ta'lim usullaridan foydalanish borasida ma'lumotlar keltirilgan. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish, kompyuter va axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, bolalarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirmoqda.

Kalit so'zlar: Kimyo kursi, anorganik kimyo, kimyoviy jarayonlarni boshqarish, zamonaviy usullar bilan yangi- yangi moddalar olish.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarish va ularni har tamonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish davlatimiz siyosatini ustivor yo'nalishiga aylangan. Chunki jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi. Hozirgi kunda hayotimizni barcha jarayonlarini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish murakkab bo'lib bormoqda. Ta'lim tizimida ham innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, axborot jamiyatining jadal rivojlanishi, bolalarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Innovatsion ta'lim texnologiyalari haqiqiy narsalar yoki hodisalarning rang harakat va tovushda qayta yaratishga imkon beradi. Ularning qobiliyatlarini kengroq ochishga yordam beradi va aqliy faoliyatini kuchaytirib boradi. Kompyuterning bir vaqtning o'zida matn, grafik tasvir, ovoz, nutq, videorolik, elektron jadvallar ma'lumotlarini katta tezlikda takrorlash qobiliyati yangi faoliyat vositalarini yaxshi tushunishga imkon beradi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq masalalar U.Yo'ldoshev, R.Boqiyev, F.Zakirova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Kimyoni o'qitish samaradorligini oshirishda kompyuter vositalaridan foydalanishga bag'ishlangan ishlar juda kam, bor manbalarda ham axborot texnologiyalarining o'quv jarayonidagi imkoniyatlari yetarlicha ochib berilmagan. Kimyoni o'rganishda axborot- kommunikatsion vositalaridan foydalanish samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan ishlar ham kam. Bor manbalarda ham o'quv tarbiyaviy jarayondagi imkoniyatlari yetarlicha



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

to'liq ochib berilmagan. Kimyo kursini, xususan, kimyoviy elementlarning "Davriy qonuni va davriy jadvali" bo'limini yangi metodlardan foydalanib, kompyuter texnologiyasi bilan birga o'tishning zamonaviy dasturlari ishlab chiqilsa o'quv samaradorligi yanada oshardi. Kimyo o'quv predmetini elektron qo'llanmalardan foydalanib o'qitish va umuman mavzu yuzasidan elektron qo'llanmalar bo'yicha qator maqola va internet saytlari mavjud. Bu borada xorijda yaratilgan P.A. Freshneyning "Education Periodic Table" elektron qo'llanmasi kimyoviy elementlar davriy jadvali elektron ko'rinishda bo'lib, har bir kimyoviy elementning qachon va kim tomonidan kashf qilingani, ularning tabiatda ko'rinishi, ularning birikmalari, xossalari, dunyo xaritasida elementlarning joylashgan o'rni, element atomlarning fazoviy tuzilishining harakatli holati to'liq ma'lumot olish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari ta'limni modernizatsiya qilish jarayonining muhim qismidir. AT - bu axborotni qayta ishlashning turli xil qurilmalari va usullari, birinchi navbatda - kerakli dasturiy ta'minot va telekommunikatsiya vositalariga ega kompyuterlar, ularda joylashtirilgan ma'lumotlar.

Ta'lim jarayonida AT ni qo'llashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- turli maqsadlar uchun pedagogik dasturiy ta'minotni ishlab chiqish;
- ta'lim maqsadlarida veb-saytlar yaratish;
- uslubiy va didaktik materiallarni ishlab chiqish;
- real ob'ektlarni boshqarish (o'quv botlari);
- virtual modellar bilan kompyuter tajribalarini tashkil etish va o'tkazish;
- global va mahalliy tarmoqlarda turli ko'rinishdagi axborotni maqsadli izlash, uni to'plash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishni amalga oshirish;
- tajriba natijalarini qayta ishlash;
- o'quvchilarning intellektual bo'sh vaqtini tashkil etish.

Hozirgi kunda eng ko'p qo'llaniladigan multimedia vositalaridan foydalangan holda integratsiyalashgan darslarni tashkil qilish ta'limning ajralmas qismiga aylanib bormoqda, ammo bu IT qo'llanilishining eng oddiy misolidir.

Respublikamizda kimyo fanini o'qitishda G'.Umonqulovning "D.I.Mendeleyev kimyoviy elementlar davriy sistemasi" elektron qo'llanmasi mavjud. Ushbu elektron jadval kimyoviy elementlarning fizik kattaliklarini tez va oson topish imkoniyatini beradigan sodda dastur asosida tuzilgan. Akademik litseylarning kompyuterda kimyo fanini o'rgatuvchi dasturlar, qo'llanmalarga, kompyuterdan foydalanib o'qitishga bo'lgan ehtiyoj maqola mavzusining naqadar dolzarb ekanligini belgilaydi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Elektron o'quv qo'llanma o'zaro gipermurojaatlar bilan bog'langan ma'lumot bazasi, vazifalari va nazorat blokida o'qitish jarayonini interfaolli bilan birga shu o'quv qo'llanma bo'limlari orasidagi intellektual- mantiqiy aloqalar bo'lishi kerak.

Kimyo fani sohasida kompyuterdan foydalanish — mavzular bayoni tasvirlardagi animatsion harakatlar, tabiatdagi ko'z bilan ko'rish imkoni bo'lmagan kimyoviy jarayonlarni o'ziga xos tarzda namoyish etish juda katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko'plab tadqiqotchi olimlar tomonidan isbotlab berilgan. O'quv mashg'uloti davomidagi faol faoliyat asosan talaba va o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi.

Buning uchun ular orasidagi o'zaro bog'liqlik, ko'p hollarda dars jarayonida qo'llaniladigan metodik qo'llanmalar vositasida tashkil etiladi. Ayniqsa, kimyo faniga endigina qadam qo'yayotgan o'quvchilarga didaktik o'yinlarni o'zida mujassam etgan noan'anaviy mashg'ulotlar, texnik vositalar bilan tashkil etilgan dars jarayoni o'quvchining esida qoladi va bu fanga qiziqishi oshadi. Darslarda o'quv texnik vositalardan foydalanish ayni paytda darslarni samarali, faol tarzda tashkil etishda, o'quvchining diqqat e'tiborini jalb etish kabi kutilgan natijalarni bermoqda. Barkamol avlodni tarbiyalashda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida kimyo darslarini o'qitishda elektron darsliklar yaratish, ularni akademik litsey va kasb hunar kollejlarning ta'lim tizimiga qo'llash o'quvchilarni bilimini oshiradi, o'qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishda yordam beradi.

Anorganik kimyoda kimyoviy elementlarning “Davriy qonuni va davriy jadvali” mavzusini uslubiy jihati mukammal bo'lishida zaruriy ko'rgazmalar va o'qitish vositalaridan samarali foydalanish juda muhim. Fandagi ba'zi yangi atamalarni izohlashning uslublarini ishlab chiqish talab etiladi. Mavzu bibliografik xarakterga ega bo'lib, darslikdagi ma'lumotlar chegaralanishi darsni “zerikarli” holatga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kimyo fanini o'qitishda innovatsion ta'lim usullaridan foydalanishning asosiy vazifasi o'quvchiga ayni fanning zaruriy tushunchalari va qonunlari asosida kimyoviy jarayonlarni boshqarish, zamonaviy usullar bilan yangi- yangi moddalar olish va ulardan nafaqat sanoat, qishloq xo'jaligi miqyosida, shuningdek kundalik turmushda, oilada foydalanishning umumiy yo'nalishlarini ko'rsatib berishdan iborat bo'lishi kerak.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari: Avtoref.dis. ... ped.fan.nomzodi. Toshkent. 2011. - 24b.
2. Umonqulov G'. "D.I.Mendelejev kimyoviy elementlar davriy sistemasi" elektron qo'llanmasi.
3. Xolmamatova L. Kimyo darslarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish. Xalq ta'limi 2007. №5.- 81-83 b
4. [www. google.uz](http://www.google.uz)
5. [www. google.ru](http://www.google.ru)
6. www.ziyonet.uz



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES